

## ТАЙИНЛОВ



Ўзбекистон Республикаси Фавқуллода вазиятлар вазирлигининг тегишли буйруғи билан кимё фанлари доктори, доцент Зиядуллаев Одилжон Эгамбердиевич ФВВ Академияси бошлиғининг биринчи ўринбосари (ўқув, илмий ва инновация ишлари бўйича) лавозимига тайинланди.

О.Зиядуллаев тайинловга қадар Чирчиқ давлат педагогика университети илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори лавозимида фаолият юритган.

Вазирлик раҳбарияти Одилжон Зиядуллаевга келгусидаги хизмат фаолиятларида улкан муваффақиётлар тилаб қолади.

### Қарор ва ижро

## ДАРЁ ЎЗАНЛАРИНИ ТОЗАЛАШДА НИМАЛАРГА РИОЯ ҚИЛИНАДИ?

Дарёлар ўзанларини тозалаш ва ички бозорни қум-шағал материаллари билан барқарор таъминлаш мақсадида, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 9 июлдаги "Ички бозорни қум-шағал материаллари билан барқарор таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарори қабул қилинган.

Қарор талабларига кўра, тўпланиб қолган қум-шағал материалларидан тозаланиши лозим бўлган дарё ўзанларининг рўйхати Ўзбекистон Республикаси Фавқуллода вазиятлар вазирлиги, Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги ҳамда Тоғ-кон саноати ва геология вазирлиги ходимлари томонидан олиб борилган ўрганишлар натижалари бўйича шакллантирилади.

Дарё ўзанларини тозалашда фақат қирғоқлар ювилишига ҳамда яқин ҳудудларнинг сув босишига сабаб бўлиши мумкин бўлган ва сув оқимларига тўқинлик қилаётган ўзанда йиғилиб қолган қум-шағал материаллари ҳажми қазиб олини-

шига рухсат этилади. Дарё ўзанларини тозалаш жараёнида қум-шағал материалларини қазиб олиш ишлари мавсумий тарзда, ер участкаларини ажратмаган ҳолда амалга оширилиши белгиланган. Шу билан бирга мазкур қарорда Комиссия томонидан тасдиқланадиган рўйхатдаги майдонларда дарёлар ўзанларини тозалаш ишларига тадбиркорлик субъектларини жалб қилиш Хавфсиз дарё бошқармаси томонидан "Е-аукцион" электрон савдо платформаси орқали ўтказиладиган танлов йўли билан амалга оширилиши белгиланган.

Маълумки, Сирдарё дарёси Сирдарё вилоятининг шимолий қисмидан оқиб ўтган бўлиб, унинг узунлиги 140,7 километрга тенг. Умумий сув муҳофаза майдони 7003,1 гектар, шундан қирғоқ бўйи майдони 1388,8 гектарни ташкил қилади.

Бугунги кунда Сирдарё вилояти ҳудудидан оқиб ўтувчи Сирдарё дарёси ўзанида қирғоқлар ювилишига ҳамда яқин ҳудудларни сув босишига сабаб бўлиши мумкин бўлган

ва сув оқимларига тўқинлик қилаётган дарё ўзанида тўпланиб қолган қум-шағал материалларидан тозаланиши лозим бўлган участкаларда ўзан тозалаш ишлари лойиҳасини амалга ошириш ҳуқуқини аукцион савдо платформаси орқали қўлга киритган 35 та тадбиркорлик субъекти ва 1 та бошқарма томонидан 46 та участкада белгиланган лойиҳа параметрлари ҳамда экологик экспертиза хулосалари асосида ўзан тозалаш ишлари олиб борилмоқда.

Шу ўринда қурилиш ишларида қум-шағалга зарурат бўлганда, дарё ўзанларини тозалаш ишларини олиб боровчи тадбиркорлик субъектларига мурожаат қилинса, мақсадга мувофиқ бўлади.

Ўзбошимчалик билан, ноқонуний тарзда дуч келган жойдан қум-шағал ортиш, ташаш билан шуғулланувчилар, Ер ости бойликларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш талабларини бузган деб топилади.

Бу, ўз навбатида, Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 70-модда 1-қисми билан фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг ўн бараваридан йигирма бараваригача, мансабдор шахсларга эса ўттиз бараваридан эллик бараваригача миқдорда жарима солишга сабаб бўлади.

Шухрат СУЯРОВ,  
ЎЗА мухбири

## ФАОЛИЯТ ТАКОМИЛЛАШТИРИЛАДИ

Ғ.О.Мавлонов номидаги Сейсмология институти ҳамда М.Т.Ўрозбоев номидаги Механика ва иншоотлар сейсмик мустаҳкамлиги институти фаолияти такомиллаштирилади.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси "Ўзбекистон Республикаси Фанлар академиясининг Ғ.О.Мавлонов номидаги Сейсмология институти ҳамда М.Т. Ўрозбоев номидаги Механика ва иншоотлар сейсмик мустаҳкамлиги институти фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" қарор қабул қилди.

Унга мувофиқ:

Ғ.О.Мавлонов номидаги Сейсмология институтининг асосий вазифалари;

М.Т.Ўрозбоев номидаги Механика ва иншоотлар сейсмик мустаҳкамлиги институтининг асосий вазифалари;

Ғ.О.Мавлонов номидаги Сейсмология институтининг тузилмаси;

М.Т.Ўрозбоев номидаги Механика ва иншоотлар сейсмик мустаҳкамлиги институтининг тузилмаси;

Ғ.О.Мавлонов номидаги Сейсмология институтининг Давлат бюджетли маблағлари ҳисобидан молиялаштириладиган илмий ходимлари сонининг жадвали;

М.Т.Ўрозбоев номидаги Механика ва иншоотлар сейсмик мустаҳкамлиги институтининг Давлат бюджетли маблағлари ҳисобидан молиялаштириладиган илмий ходимлари сонининг жадвали;

Ғ.О.Мавлонов номидаги Сейсмология институтининг 2026 йилгача мақсадли кўрсаткичлари;

М.Т.Ўрозбоев номидаги Механика ва иншоотлар сейсмик мустаҳкамлиги институтининг 2026 йилгача мақсадли кўрсаткичлари;

Ғ.О.Мавлонов номидаги Сейсмология институтининг 2024-2026 йилларга мўлжалланган илмий-тадқиқот ишлари дастури;

М.Т.Ўрозбоев номидаги Механика ва иншоотлар сейсмик мустаҳкамлиги институтининг 2024-2026 йилларга мўлжалланган илмий-тадқиқот ишлари дастури тасдиқланди.

Ғ.О.Мавлонов номидаги Сейс-

мология институти ҳамда М.Т.Ўрозбоев номидаги Механика ва иншоотлар сейсмик мустаҳкамлиги институти Фанлар академияси тизимидаги илмий ташкилотлар сифатида давлат буюртмалари ва дастурларини амалга ошириш доирасида фундаментал ва амалий тадқиқотлар ўтказиладиган ҳамда инновацион ишланмаларни амалиётга жорий қилишда иштирок этади.

Институтлар сейсмология, иншоотларнинг сейсмик мустаҳкамлиги ва сейсмик хавфсизликни таъминлаш йўналишидаги илмий-тадқиқот ишлари режаларини тегишлича Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги, Фавқуллода вазиятлар вазирлиги ҳамда вилоятлар ҳокимликлари билан келишилган ҳолда амалга оширади.

Институтлар Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлигига: сейсмик фаол зоналарда жойлашган шаҳарларнинг бош режаларини ишлаб чиқиш учун сейсмик микроҳудудлаштириш хариталарини; сейсмик фаол зоналарда янги

қурилиши режалаштирилаётган хавфлилик омили IV тоифа объектлар учун зилзилабардошлик бўйича илмий хулосаларни белгиланган тартибда тақдим этиб боради.

Институтлар вилоят ва туман (шаҳар) ҳокимликлари билан бевосита ҳамкорлик қилиш доирасида:

ҳар чорақда тегишли ҳудудга ихтисослаштирилган илмий-тадқиқот ишланмаларини ҳокимликларга киритиб, уларнинг мазмун-моҳияти юзасидан жойига чиққан ҳолда ёки видеоконференцалоқа шаклида тушунтиришлар ва илмий-семинарлар ташкил этиб боради;

ҳудудлар сейсмик хавфсизлигини таъминлашга оид ҳокимликларнинг барча сўров ва мурожаатларига илмий ва амалий ёндашув асосида хулосаларни беғараз тақдим этади;

олимлардан иборат таркибда илмий гуруҳлар ташкил этиб, ҳар бир ҳудудга бириктиради ва ҳудудлар кесимида тадқиқотлар ўтказилади.

ЎЗА.



## ПРОКУРОРЛИК СОАТИ

Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратураси томонидан Чирчиқ шаҳрининг “Аранчи” кўрғонидаги 26-умумтаълим мактабида “Прокурорлик соати” ўтказилди.



Унда мамлакатимизда ёшларга яратилган имкониятлар, Ватан туйғуси, тинчлик қадри, Конституция ва қонунларга ҳурмат мавзуларида сўз юритилди.

Тадбир якунида фаол ёшларга ташкилотчилар томонидан эсдалик совғалар топширилди. Тадбир сўнггида мактаб ҳовлисидаги ҳарбий оркестр навалари ҳамда қурол-аслаҳалар намойиши бўлиб ўтди.

**Сардор ЁРМАТОВ,**  
Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокурорининг  
ёрдамчиси, адлия подполковниги.



## “ОЧИҚ ЭШИКЛАР КУНИ”

Тошкент ҳарбий прокуратураси, Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Академияси ва қатор ташкилотлар ҳамкорлигида ҳарбий қисмда “Очиқ эшиклар куни” ўтказилди.

Тадбир Қуролли Кучлар Академиясига Тошкент шаҳрида жойлашган 10 дан ортиқ мактаб ўқувчилари ҳамда уюлмаган ёшлар жалб этилиб “Халқ ва армия – бир тану бир жон!” шиори остида ўтган тадбирда ёшлар ҳарбий оркестр садоси остида кутиб олинди, дастлаб меҳмонларга Қуролли Кучлар Академиясида яратилган шароитлар, курсантларнинг таълим олиш жараёнлари таништирилди.

Академия музейидан ўрин олган экспонатлар орқали ёшларни миллий армиямиз ҳақидаги тасаввурлари янада бойитилди.

Ёшлар маскандаги Кутубхона ва ахборот маркази имкониятларидан баҳра олиб, намойиш этилган қурол-аслаҳалар кўргазмаси ва ҳарбий хизматчиларнинг “Қўл жанги” чиқишларидан катта таассурот олдилар.

Ёшлар ҳарбий хизматчилар билан бир дастурхонда таомланиб, Ватан ҳимоясидек шарафли бурч эгалари билан ўзаро фикр алмашдилар.

Тадбирни иккинчи қисмида Тошкент ҳарбий прокурори Акбар Бобоев иштирокида “Прокурор ва ёшлар” учрашуви ўтказилиб, фахрийлар ёшларнинг қизиқишлари билан ўртоқлашдилар ва ҳаётий тавсияларини бердилар.

**Иброҳим ФАЙЗУЛЛАЕВ,**  
Тошкент ҳарбий прокурорининг  
катта ёрдамчиси, адлия подполковниги.

Фавқулудда вазиятлар вазирлиги тарғибот гуруҳлари томонидан Қашқадарё вилояти ФВБ шахсий таркиби ўртасида ҳарбий интизомни мустаҳкамлаш, ҳуқуқбузарлик ҳамда жиноятчиликнинг олдини олиш, маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш, шунингдек, вазирлик тизимига бириктирилган ёшлар билан ишлаш тартиби тўғрисида учрашув ўтказилди.

## ЙИФИЛИШ

Йиғилишни вилоят ФВБ бошлиғи полковник Ф.Мирзаев очиб, вазирлик томонидан белгиланган чора-тадбирлар, норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ҳамда буйруқлар қабул қилиниб, тизимли ишлар олиб борилишига қарамасдан, айрим ходимлар томонидан ўз мансаб ваколатини суиистеъмол қилиш, ўзгаларнинг ишончига кириш орқали, уларни алдаб, фирибгарлик жиноятларини содир этилиши давом этиб келаётганлигини таъкидлаб ўтди. Шахсий хавфсизлик бошқармаси бўлим бош инспектори подполковник Б.Алиев ҳам тизимда содир этилган қонунбузарлик, коррупцион ҳолатларига тўхталиб, ҳарбий хизматчилар ўртасида коррупция ва жиноятчиликнинг олдини олиш мақсадида давра суҳбатлари ва учрашувлар ўтказилиши, барча шахсий таркибни билим ва кўникмаларини ошириб бориш лозимлигини қайд этди.

**Т.ТўРАЕВ,**  
Қашқадарё вилояти ФВБ шахсий хавфсизлик  
бўлими бошлиғи, подполковник.

## МУҲИМ УЧРАШУВ

“Навоий кон-металлургия комбинати” АЖ ва “Навоийуран” ДК объектларида Ёнгин хавфсизлигини таъминлашни ташкил этиш маркази ва унинг таркибидаги Учқудуқ, Зарафшон ва Зафаробод кон бошқармаси, Навоий саноат майдони ва жанубий кон бошқармаси объектларида ёнгин хавфсизлигини таъминлашни ташкил этиш бўлимларининг ҳарбий хизматчи ва хизматчилари ҳамда вилоят ФВБ ҳарбий хизматчилари билан “Вазирлик тизимидаги ҳарбий хизматчилар билан қўшимча келишув тузиш ҳамда ҳуқуқбузарлик ва жиноятларнинг олдини олиш” ҳамда “Коррупцияга қарши курашни ўзини ислоҳ қилишдан бошлайлик!” мавзуларида кенгайтирилган учрашув бўлиб ўтди.

Унда Навоий ҳарбий прокурори адлия полковниги Жўрабек Уринов, вазирлик Маънавий-маърифий ва тарбиявий ишлар бошқармаси бошлиғи вазифасини в.б подполковник Жаҳонгир Ҳасанов, вазирлик ва вилоят масъул ходимлари иштирок этишди. Дастлаб вазирлик таркибида хизмат вазифасини ўтаётган ҳарбий хизматчиларга хизмат мажбуриятлари ва икки томонлама тузилган шартнома талаблари, уларнинг афзалликлари ва бошқа бир қатор тавсия ва талаблар тушунтирилиб ўтилди. Шунингдек, сўзга чиққан масъуллар томонидан ўтган 2023 йил давомида вазирлик тизимида шахсий таркиб ўртасида содир бўлган турли кўринишдаги бир қатор жиноятлар ва шунга ўхшаш қонун бузилиш ҳолатлари мисоллар тариқасида келтирилиб, уларнинг аянчли ҳолатлари тўғрисида маълумотлар айтилди.

Учрашув якунида масъул ходимлар билан очиқ мулоқот ўтказилиб, ҳарбий хизматчилар томонидан ўзларини қизиқтирган саволларга жавоб олишди.

**Маъруфжон ҲАЙИТОВ,**  
НКМК АЖ ва “Навоийуран” ДК ЁХТТЭМ  
гуруҳ бошлиғи, катта сержант.



## ТАШАББУС ДОИРАСИДА

Қарши ҳарбий прокуратураси ташаббуси билан Деҳқонобод тумани ҳокимлиги, вилоят Мудофаа, Миллий гвардия, Қўриқлаш ва Фавқулудда вазиятлар бошқармалари ҳамкорлигида туманнинг олис ва чегараолди худудида ҳарбий ватанпарварлик тадбири ташкил этилди.

Унда “Оқиртма” маҳалласи ёшлари ҳамда худуддаги 5-сонли умумтаълим мактаби ўқувчилари иштирок этди.

Тадбир давомида арқон тортиш, армрестлинг спорт турлари бўйича беллашувлар ҳам ўтказил-

ди. Голиблар эсдалик совғалари билан тақдирланди.

Бир гуруҳ ёшларга “Ватан таянчи” кўкрак нишонлари топширилди.

**Бахтиёр АҲМЕДОВ,**  
Қарши ҳарбий  
прокурори, адлия  
подполковниги.

## “ИЖАРАГА ХОНАДОН БОР...”

Сўнги йиллардаги таҳлиллар шуни кўрсатмоқдаки, фирибгарлик билан боғлиқ жиноятлар нисбатан кўпайган. Ачинарли томони шундаки, ёш йигит-қизлар ўзга инсонларни алдаб, пули ва мол-мулкни қўлга киритишмоқда. Шу ўринда айрим мисолларни келтириб ўтсак. Судланувчи Н.Э. исми аёл муқаддам судланган бўлишига қарамасдан яна жиноятга қўл урган. Гап шундаки, Тошкент шаҳрида ишлаб чиқариш цехини ишга тушириш мақсадида келган С.С. маклер орқали уй қидирган. Бироқ, нархига келиша олмаган. Шундан сўнг у таниши орқали Н.Э. билан гаплашади.

– Сизга ўзим арзонроқ хонадон топиб бераман, – дейди улар учрашганида Н.Э. исми аёл. – “Аския” бозори атрофида уч-тўртта хонадон бор. Нархи ҳам арзон. Ижара тўлови ойига 500 АҚШ доллари. Олдиндан 3 ойликни тўлайсиз.

Эртаси куни С.С. айрилган манзилга бориб, аёлнинг қўлига 1500 АҚШ долларини беради.

– Оилам билан бир-икки кундан кейин кўчиб келаман, – дейди мижоз.

– Озроқ шошмай турасиз, – дея айёрона гапиради аёл. – Уй таъмирталаб...

Шу гап-сўзлардан кейин улар хайрлашади. Ижарага хонадон топиб бермоқчи бўлган аёл 1500 АҚШ долларини қўлга киритгач қо-

расини кўрсатмайди...

Н.Э. бу билан қаноатланмай ижарага уй қидириб юрган яна икки нафар фуқарони алдайди. Биридан етти ой муддатга 4200 АҚШ доллари, иккинчисидан 500 АҚШ долларини олган. Яқинда судда мазкур жиноят иши кўриб чиқилди. Суднинг ҳукмига кўра, фирибгарликни “қасб” қилган Н.Э. исми аёлга жиноят ишлари бўйича Тошкент шаҳар Шайхонтохур туман судининг 2023 йил 16 январдаги ҳукми билан тайинланган жазонинг ўталмай қолган қисмини тўлиқ қўшиш йўли билан узил-кесил 4 йил муддатга озодликни чеклаш ҳамда 12265000 сўм жарима жазоси тайинланди.

Ишламай осонгина пул топиш йўлини танлаганлар эрта-ми-кечми қонун олдида жавоб беришади. Бировнинг ҳақи ҳеч қачон юкмайди. Ноқонуний, ўзга шахсларнинг маблағи ҳисобига кун кечирмоқчи бўлганлар узоққа бормайди, бу ҳаром пул уларга юкмайди. Фирибгарлар тузоғига тушмаслик учун ўзимиз эҳтиёт бўлишимиз керак. Ўзгаларни ҳам ҳар хил ёлғон ваъдаларига учиб, чув тушмаслиги учун барчамиз бирдек ҳаракат қилмоғимиз, ташвиқот ва тарғибот ишларини олиб бормоғимиз зарур.

**Алишер ЖАЛИЛОВ,**  
Жиноят ишлари  
бўйича Яққасарой  
туман судининг раиси.



FVV Akademiyasi ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar bo'limi, Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrasida hamda batalyon ofitserlari mas'ulligida, 1-batalyon kursantlari bilan "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari davlat muzeyi"ga tashrif buyurishdi.

## MUZEYGA SAYOHAT

Tashrif davomida muzeyning tarixiy va qimmatbaho eksponatlar hamda ko'rgazmali materiallar kursantlarda katta qiziqish uyg'otdi. Kursantlarga muzey xodimasi tomonidan muzey tarixi, undagi eksponatlar, turli xil sur'at va ko'rgazmalar to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar berib o'tildi. Muzeydagi eksponatlar va ko'rgazmalar har bir tashrif buyuruvchilar qalbida iliq taassurotlar qoldirdi. Muzeyda "Fashizmga qarshi kurash yillari" mavzuidagi ekspozitsiyalar, Ikkinchi Jahon urushi yillarida vatandoshlarimizning frontda va front ortida ko'rsatgan o'chmas jasorat namunalari bilan yaqindan tanishishdi. Ko'rgazmalarda urush harakatlari-

da ishtirok etgan askarlarning shaxsiy buyumlari, jangovar mukofotlari, jangnoma xotiralari o'rin olgan.

Front orti bo'limida esa O'zbekistonda ishlab chiqarilib, jang maydonlariga yuborilgan harbiy texnikalar, mahsulotlar va ulardan ayrimlarining maket namunalari joylashtirilganligi ayniqsa, o'zbek xalqining urush yillarida olib borgan matonatli mehnati haqida hikoya qiluvchi eksponatlar, yoshlarni kelajakda ona-Vatanga sodiq xizmat qiladigan ofitser kadrlar bo'lishida muhim o'rin egallaydi.

FVV Akademiyasi axborot xizmati.

Farg'ona viloyati FVBda tashkil etilgan seminarda FVV Akademiyasi professori Rahmatillo Boltaboyev, akademiya kafedra boshlig'i, dotsenti podpolkovnik Sayfiddin Jumayevlar tomonidan boshqarma shaxsiy tarkibiga akademiya faoliyati, ta'lim jarayonlari, yaratilgan shart-sharoitlar hamda ilmiy ish qilish istagida bo'lgan barcha harbiy xizmatchilarga amaliy yordam ko'rsatilishi yuzasidan fikrlar aytib o'tildi.

## KURSANTLAR AMALIYOTDA



Shuningdek, professor R.Boltaboyev tomonidan bugungi kundagi favqulodda vaziyatlar, yong'inlar, is gazidan zaharlanish va barcha turdagi ko'ngilsiz holatlar yuzasidan ilmiy yo'nalishda barcha shaxsiy tarkibga yana bir bor slaydlar orqali tushunchalar berildi.

A.ALIJONOV,

Farg'ona viloyati FVB axborot xizmati, boshlig'i kapitan.

## KON MAYDONIDA



"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ Markaziy kon boshqarmasi obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi xodimlari tomonidan Zarafshon shahrining "Auminzo-Amantoy" kon maydonidagi yangi qurilayotgan va foydalanishda bo'lgan obyektlarda 2023-yil davomida 5 marotaba to'liq, 7 marotaba nazorat tartibida, 114 marotaba tezkor tartibida tekshirishlar o'tkazildi.

Aniqlangan yong'in 58 ta banddan iborat xavfsizligi qoida-talablarini buzilish holati yuzasidan obyekt rahbarlariga bundan tashqari yangi

qurilayotgan obyektlar 4 marotaba to'liq tekshirilib, 29 ta banddan iborat yozma ko'rsatmalar ijro uchun taqdim etildi, shuningdek, obyektlarni yong'in xavfsizligi holatini yaxshilash borasida obyekt rahbarlariga nazorat uchun 34 marotaba axborot xatlari taqdim etildi. Tekshirishlar davomida yong'in xavfsizligi qoida-talablarini buzgan 52 nafar ishchi-xizmatchilarga nisbatan ma'muriy jarimalar qo'llanildi.

Oybek MUSTAFOYEV, Markaziy kon boshqarmasi obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi (Zarafshon) inspektori, kapitan.

Sherali NORMURODOV, kichik inspektor, katta serjant.

## XAVFSIZLIK

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ mamlakatimizda yashil energetika sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarda faol ishtirok etmoqda.

Shimoliy kon boshqarmasi (Uchquduq) obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi tomonidan qo'riqlanayotgan obyektlarda 2024-yil oxirigacha ishlab chiqarishda 76 ta hamda korxonada xodimlarining turar-joy binolariga 225 ta quyosh va suv isitgichlarni o'rnatish rejalashtirilgan. Eng yirik quyosh suv isitish stansiyasi issiqlik suv, gaz ta'minoti va oqova suvlar sexida qurilmo-

qda. Bu yerda o'rnatilgan 477 ta quyosh suv isitgichlari temiryo'l sexi sanoat maydonchasiga joylashgan Qozonxona sexining ishlashida uni o'rmini bosadi. Ushbu stansiyaning ishga tushirilishi natijasida tabiiy gazni yiliga 80 ming kubometrdan ko'prog'ini tejash mumkin.

Quyoshdan elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun Shimoliy kon boshqarmasi tomonidan umumiy quvvati 9 kvt/soat bo'lgan 1600 ta fotoelektr stansiyalari qurish nazarda tutilgan. Bu yilda 2 milliard so'm bo'lgan 3 mln. kvtdan ortiq elektr energiyasini tejash imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda quyosh suv isitgichlarining 2 foizi o'rnatildi va foyda-

lanishga topshirildi. Kon boshqarmasi tomonidan 3-sonli Gidrometallurgiya zavodi, Sharqiy, Daugiztau, ochiq usulda qazib olish konlari, 1-sonli avtokorxonalar, tarmoqlar va podstansiyalar sexi, 6-yong'in-qutqaruv qismi, Markaziy fizika-kimyoviy laboratoriya va boshqa o'nlab yirik quvvatda faoliyat yurituvchi ishlab chiqarish korxonalarini ham quyosh suv isitgichlarini o'rnatish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Ma'rufjon HAYITOV, NKMK AJ va "Navoiy-uran" DK OYXTTEB guruh boshlig'i, katta serjant.

Sardor KAMOLOV, SHKB (Uchquduq) OYXTTEB inspektori, kapitan.

## UCHRASHUV

Tadbirda yong'in, uning kelib chiqish sabablari va oqibatlar haqida tushuntirish ishlari olib borildi. Isitish moslamalaridan xavfsizlik qoidalari amal qilgan holda foydalanish haqida tavsiyalar berildi. Shuningdek, aniqlangan kamchiliklar joyida bartaraf etilib, fuqarolarga xavfsizlik qoidalari tushuntirildi.

Tadbir so'ngida ishtirokchilar tomonidan berilgan savollarga javob berildi.

I.JAZDANKULOV,

Qibray tumani OYXTTEB inspektori, katta leytenant.

## MA'NAVIY-MARIFIY TADBIR

Urganch shahar FV bo'limi yosh harbiy xizmatchi va qutqaruvchilari shahardagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyiga sayohat qilishdi.

Shu bilan birga Alisher Navoiy tavalludining 583 yilligi va Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 541 yilligi munosabati bilan "Ikki buyuk siymo" deb nomlangan adabiy-ma'rifiy, badiiy tadbir o'tkazildi.

Unda harbiy xizmatchilar ikki buyuk siymoning shaxsi va ularning insoniylik, vatanparvarlik xususiyatlari haqida

ma'lumotlar berilib, uning buyuk salohiyati, dilbar shaxs sifatidagi xususiyatlari ochib berildi. Shu bilan birga, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi, g'azal va ruboiylari ijro etishdi.

Uchqun TURSUNBAYEV, Urganch shahar FV bo'limi boshlig'i, mayor.



## E'TIBOR

Qashqadaryo viloyati FVB tomonidan "2024-yilda yoshlarni otaliqqa olish va ular bilan manzilli ishlash mexanizmi" mavzusida seminar tashkil etildi.



Mazkur tadbir davomida joylarga birlashtirilgan harbiy xizmatchilar yoshlar bilan ishlashning yangi mexanizmidagi belgilab qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda nimalarga e'tibor qaratish lozimligini aytib o'tildi.

Qashqadaryo viloyati FVB axborot xizmati.



## O'QUV

Toshkent viloyati O'rtachirchiq tumanida joylashgan JFM "Lega Group" MChJga qarashli bojxona omborida "Zilzila oqibatida yuzaga kelgan avariya, yong'in hamda kimyoviy moddaning to'kilishi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda FVDT xizmatlari va huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning hamkorlikdagi harakatlari" mavzusida o'quv seminar va maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

Ko'rgazmali maxsus-taktik o'quv mashqining amaliy qismida FVV, Toshkent viloyati FVB, viloyat Bojxona, Ichki ishlar, Sog'liqni saqlash boshqarmalari, Olmaliq YQO RK va TB(b) M guruhi, Tog'-kon, geo-

logiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi, tuman elektr va gaz tarmoqlari, Sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligining mas'ul xodimlari so'zga chiqib, aholini, shu jumladan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lmaganlarni, maktab-gacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, umumta'lim maktablari, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari o'quvchilarini zilzila oqibatida yuzaga keladigan favqulodda vaziyatlarda muhofazalanish, jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish, jamoaviy va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish qoidalari hamda usullariga o'rgatish, aholini zilzilaga tayyorlashning asosiy vazifalari xususida muhim ma'lumotlarni aytib o'tishdi. Mashqlar davomida tezkor xizmatlarga xabar berish va ogohlantirish, yong'inni

bartaraf etish uchun jalb qilinadigan kuch-vositalarni to'g'ri yo'naltirish, jabrlanganlarni xavfsiz hududlarga olib chiqish, ularga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish harakatlari amaliy tarzda ko'rsatildi. O'quv jarayoni davomida majmuada favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda aloqa va xabar berish tizimi bo'yicha tegishli xizmat tarmoqlariga tezkor xabarni yetkazish, rahbarlar tarkibiga xabar berish, ularni yig'ish, amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirish, tahlil qilish, bundan tashqari ma'lumotlarni qabul qilish, ularni o'rnatilgan tartibda rahbar-xodimlarga yetkazish yuzasidan ishlab chiqarish dispetcherlik xizmati xodimlarining tezkor harakatlari namoyish etildi.

Maxsus-taktik o'quv mashqi yakuni bo'yicha ishtirokchilar va kuzatuvchilar bilan savol-javob va yo'l qo'yilgan kamchiliklar yuzasidan muhokama tadbirlari olib borilib, kelgusida bunday kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik yuzasidan tegishli ko'rsatmalar berildi. Mazkur tadbir davomida qo'yilgan vazifalar to'liq bajarildi.

**O. RAHMONOV,**  
Toshkent viloyati FVB RK  
va TBMTE bo'limi bosh inspektori.



Buxoro viloyati FVB harbiy xizmatchi va xizmatchilar o'rtasida sportning stol tennisi turi bo'yicha "Buxoro viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi birinchiligi" musobaqasi o'tkazildi. Musobaqaga boshqarma shahar, tuman FV bo'limlari hamda obyektlarda binolarning yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'limlaridan 26 ta jamoa qatnashdi.

## G'OLIBLAR ANIQLANDI

Musobaqa yakuni bo'yicha jamoalar orasidan bahslarga puxta tayyorgarlik ko'rgan Olot tumani FV bo'limi 4-KYQQ 3-o'ringa, G'ijduvon tumani FV bo'limi 8-YQQ terma jamoasi 2-o'ringa, "Muborak" NGQChB obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi 21-yong'in-qutqaruv qismi terma jamoasi musobaqaning g'olibi bo'ldi.



ho sovg'alari bilan taqdirlandilar. Musobaqada faol ishtirok etib, sovrinli o'rnlarni egallagan xodimlar viloyat FVB boshlig'ining faxriy yorliq va qimmatba-

ho sovg'alari bilan taqdirlandilar.

**A. UMEDOV,**  
Buxoro viloyati  
FVB X va JTTEB  
bosh inspektori,  
kapitan.

## HAMKORLIKDA

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Qashqadaryo viloyati bosh boshqarmasi xodimlarini favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga doir bilim va amaliy ko'nikmalarini yanada oshirishga qaratilgan navbatdagi o'quv mashg'ulotiga Qashqadaryo viloyati FVB Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi o'qituvchisi Ilhom Muqimov taklif etildi.

Markaziy bank ishchi-xodimlari bilan "Favqulodda vaziyatlarning turlari va tasnifi" hamda "Diqqat hammaga!" ogohlantiruvchi signalini berish va "Shaxsiy tarkibning signalga asosan harakatlanish tartibi" mavzularida o'quv mashg'ulot tashkillashtirildi va qiziqarli ravishda o'tkazildi.

Mashg'ulot mavzuga doir

tayyorlangan slaydlar taqdimoti va dolzarb hamda hayotiy misollar keltirish yo'li bilan mazmunli o'tkazildi. Tadbirida korxonaning xabar berish tizimi holati, uni samarali olib borish borasida qizg'in fikr-mulohazalar ko'rib chiqildi.

**I. MUQIMOV,**  
Qashqadaryo viloyati FVB  
HF XO'M o'qituvchisi.

## MAHORAT DARSII

**FVV** Akademiyasi "Tillar" kafedrasida katta o'qituvchisi Gulbahor Xatamova tomonidan kursant va talabalarining ilm-fan va innovatsiya sohasidagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida, "Xorijiy tillarni sohaga qo'llab o'rganishda og'zaki nutqni o'stirishning samarali usullari" mavzusida mahorat darsi o'tkazildi.



Unda akademiya o'quv jarayonini tashkillashtirish va muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i, podpolkovnik Furqat Nazarov, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining dotsenti Mahmud Shoniyo'zov, Oriyental universiteti katta o'qituvchisi Munajat Rasulova hamda akademiyaning professor-o'qituvchilari, 4-batalyon kursantlari va Oriyental universiteti talabalari ishtirok etdilar.

**FVV Akademiyasi axborot xizmati.**

Toshkent viloyati Toshkent tumani tadbirkor ishchilariga "Is gazidan zaharlanish va yong'inlarning oldini olaylik" mavzusida tushuntirish ishlari olib borildi.

## TUSHUNTIRISH ISHLARI

Ushbu tadbirlar davomida fuqarolarning yong'in xavfsizligi qoidalari bilmasliklari yoki bilaturib beparvolik bilan qoidalarni qo'pol ravishda buzishlari yong'inlarni kelib chiqishiga va fuqarolarning is gazidan zaharlanishiga sabab bo'layotgani, ayrim xonadonlar qo'lbola isitish vositalaridan, tabiiy gazdan rezina shlanglar orqali foydalanish, qo'lbola cho'yan pechlardan foydalanish, gaz isitish asboblari yoniga tez alanganuvchi buyumlarni qo'yishi yong'in xavfini keltirib chiqarayotgani ta'kidlandi.

**X. ARTIKBOYEV,**  
Toshkent tumani FV bo'limi P va NB  
boshlig'i, kapitan.



shunday natijaga erishildi.

**Ro'zimatjon XALILOV,**  
Ixtisoslashgan ko'p tarmoqli boshqarmasi OYXTTEB P va NB inspektori, katta leytenant.

## QOIDALARNI UNUTMANG!

2023-yil davomida Bo'stonliq tumanida 78 ta yong'in sodir bo'lgan. 2022-yilda esa ko'rsatgich 81 tani tashkil etgandi. Harbiy xizmatchilar-

ning tinimsiz aholi yashash xonadonlarida, ko'p qavatli uylarda, MFYlarda, tadbirkorlik obektlarida, ta'lim muassasalarida, tashkilotlarda

profilaktik suhbatlar, ko'rgazmali namoyishlar o'tkazib, fuqarolarga yong'in va uning oqibatlari haqida to'g'ri tushuncha berganliklari bois,

## YO'RIQNOMA

Toshkent shahar Olmazor tumani Avtomobil xalqa yo'lida qurulish va ta'mirlash ishlari davom etayotgan Respublika Onkologiya Radiologiya ilmiy tekshiruv markazi binosidagi ishchi-xizmatchilarga favqulodda vaziyatlar va yong'in xavfsizligi qoidalari rioya qilish bo'yicha yo'riqnoma o'tildi.



Ishchi-xizmatchilarga qo'shimcha ravishda ochiq elektr simlaridan foydalanishda ehtiyot bo'lishi, yotoq xonalarida spiralli isitgichlardan foydalanish yomon oqibatlariga olib kelishi mumkinligi tushuntirildi. Shuningdek, ish jarayonida binoda tasodifan yong'in kelib chiqqan taqdirda qanday harakat qilishi haqida ham aytib o'tildi.

**Z. MUSTAFOYEV,**  
Prezident  
Adminstratsiyasiga qarashli ma'muriy binosida YXTTEB 4-bo'linma inspektori, kapitan.

## TARG'IBOT

Toshkent viloyati FVB "Ko'ksaroy" qarorgohi OYXTTEB yong'in nazorati va profilaktika inspektorlari tomonidan Qibray tumani "Do'rmon" MFYdagi 21-DMTT ishchi va xizmatchilari ishtirokida "Favqulodda vaziyatlar va yong'inlarning oldini olish" mavzusida targ'ibot ishlari tashkil etildi.

Ishchi-xizmatchilar bilan nosoz yoki qo'lbola usulda yasalgan gaz va elektr isitish moslamalaridan foydalanish oqibatida yong'inlar sodir bo'lishi, birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish tartibi bo'yicha tushunchalar berildi.

**O. VALIJONOV,**  
Qibray tumani FV bo'limi inspektori, leytenant.



## AMALIYOT

Qoraqalpog'iston Respublikas FVB yong'inlar profilaktikasi bo'limi tomonidan "Yong'in nazoratini amalga oshirishning "E-inspektor" apparat-dasturiy kompleksi"dan foydalanishni tatbiq etish bo'yicha FVV Akademiyasi kursantlariga amalyot o'tash davrida dars mashg'uloti o'tkazildi.

Unda davlat yong'in nazorati mansabdor shaxslari tomonidan inspektorlarning ish rejaları, tekshiruvlarni o'tkazish jadvallari, yozma ko'rsatmalar, obyektlardan foydalanishni, ayrim yong'in xavfiga qarshi ishlarni olib borishni qisman yoki butunlay to'xtatib qo'yish qarorlarini "E-inspektor" dasturiga kiritish usullari o'rgatildi. Dars yakunida savollarga atroflicha javob berildi.

J.PIRJANOV

Qoraqalpog'iston Respublikasi FVB bo'lim boshlig'i, mayor.

A.ERIMBETOV,

FVV Akademiyasi 5-batalyon kursanti.



## MAVSUMNI BETALAFOT O'TKAZAYLIK!

Buxoro shahar FV bo'limi tomonidan "Sherbudin" MFY aholi xonadonlarida o'rganish ishlari olib borildi. O'rganish davomida qo'lbola isitish vositalaridan foydalanish, dudburonlarni toza holda saqlash va boshqa inson hayotiga xavf solishi mumkin bo'lgan vaziyatlarning oldini olishga asosiy e'tibor qaratildi.

Viloyat FVB mas'ul xodimlari aholi xonadonlarida yong'in xavfsizligi, elektr simlarining sozlik holati, "Hududgaz" filiali tomonidan gaz jo'mraklarining mustahkamligi ta'minlandi. Yong'indan saqlash jamoat birlashmalari tomonidan mo'rilarning ulash joylari ko'rikdan o'tkazilib, kamchiliklar bartaraf etildi. Aholiga qish mavsumini betalafot o'tkazish bo'yicha eslatmalar tarqatildi.

B.XUDOYBERDIYEV,

Buxoro shahar FV bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.

## MAXSUS-TAKTIK MASHQI

O'rtachirchiq tumani FV bo'limi, "Quyil Bo'zsuv GESlar kaskadi" UKning fuqaro muhofazasi tuzilmalari ishtirokida maxsus-taktik o'quv mashg'uloti tashkil etildi.

Tadbir avvalida tuzilmalarning maxsus texnikalar, asbob-anjomlar va himoya vositalari bilan ta'minlanganligi yuzasidan saf ko'rigi o'tkazildi hamda shaxsiy tarkib xavfsizlik qoidalari bo'yicha yo'riqnomadan o'tkazildi. Yong'inlar va boshqa tUSDagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish, avariyalarni bartaraf qilish paytida tan jarohati olgan fuqarolarga tez tibbiy yordam ko'rsatish ishlari amalga oshirildi.

A.ZOKIROV,

O'rtachirchiq tumani FV bo'limi P va NB katta inspektori, leytenant.

SH.O'ZGANOV,

bo'lim TB boshlig'i, katta leytenant.



Bir tizimda uzoq yillar ishlab, keyin yorug' yuz, izzat-hurmat bilan pensiyaga chiqishni ko'pchilik orzu qiladi. Navoiy tog'-metallurgiya kombinati Yong'in xavfsizligini ta'minlash boshqarmasi 3-harbiylashtirilgan yong'in xavfsizligi otryadi 1-harbiylashtirilgan yong'in xavfsizligi qismi profilaktika va nazorat bo'limi katta inspektori, katta serjant Eldor Qalandarov ham bugun ana shunday baxtga sazovor bo'lgan insonlardan biridir.

## NAFAQAGA KUZATILDI

Uzoq va samarali mehnat qilib, o'zining halolligi va fidoyiligi bilan yosh kadrlarga o'rnak bo'lib kelayotgan E.Qalandarov tantanali ravishda nafaqaga kuzatildi.

Ushbu tadbir davomida so'zga chiqqanlar tomonidan mehnat qilgan davrlaridagi taassurotlar xotiralandi, favqulodda vaziyatlarda ko'p yillar namunali xizmat qilganligi va bir necha marotaba davlatimizning ulkan mukofotlariga sazovor bo'lganliklari hamda rag'batlantirilganliklari xususida so'zlab o'tildi.

Iste'foga kuzatish marosimi kasbdoshlari va shogirdlari uchun bir umirlik yodda qoladigan tadbir bo'lib qoladi.

Ma'rufjon HAYITOV,

NKMK AJ va "Navoiyuran" DK obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi guruh boshlig'i, katta serjant.

## O'RGANISH VA TAHLIL

Qurilish obyektlarida yong'in xavfsizligi qoidalarini belgilangan talablar asosida bajarilishiga mas'ul bo'lgan xodimlar ishtirokida fuqarolar xavfsizligini ta'minlash va moddiy boyliklarni yong'indan asrash yuzasidan bir qator profilaktik tadbirlar tashkil qilinmoqda.

Ayni tadbirlar davomida amaldagi qurilish me'yori talablariga binoan loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan bino poydevori mustahkamligi, qurilish konstruksiyalarining to'g'ri tanlanganligi, ehtimoliy yong'inlarni bartaraf etishda zarur yong'inga qarshi suv havzalarini tashkil etish, suv minoralarini qurish, suv quvurlarini tortish, binolarini xavfsiz isitish tizimini yaratish, elektr sim va kabellarini montaj qilish ishlarini bajarish amaliyoti ko'zdan kechirilib, loyihadan og'ish yoki boshqa sabablarga ko'ra belgilangan talablarni buzishga yo'l qo'yilishiga chek qo'yilmoqda.

O'rganish va tekshirishlar yakunida qurilishda ishtirok etayotgan mas'ul rahbarlar, payvandchi va ishchi muhandislarini jalb etgan holda suhbat va uchrashuvlar o'tkazilib, ularda ishtirokchilarga bevosita qurilish maydonlarida hal etilishi lozim bo'lgan xavfsizlik choralari, yong'in xavfsizligini ta'minlash yuzasidan tushuntirishlar berilmoqda.

SH.ARTIKBAYEV,

Toshkent shahar FVB OYXTTEB kichik inspektori, kichik serjant.

## MASHG'ULOT

FMI Jismoniy imkoniyatlari cheklangan fuqarolarni favqulodda vaziyatlarga tayyorlashni tashkillashtirish sikli professor o'qituvchilari tomonidan Toshkent shahar 101-maxsus internat maktabi o'qituvchi va ishchi-xizmatchi xodimlari bilan aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish hamda fuqaro muhofazasi yo'nalishida 15 soatlik o'quv kursi bo'yicha mashg'ulotlar o'tildi.

Mashg'ulotlar vaqtida tinglovchilarga favqulodda vaziyatlar

tasnifi, muhofaza tadbirlari, zilzila va yong'in sodir bo'lganda harakatlanish tartibi, aloqa va xabar berish tizimi, shuningdek, jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish tartibi to'g'risida batafsil ma'lumotlar berildi.

A.NURMATOV,

FMI Jismoniy imkoniyati cheklangan fuqarolarni favqulodda vaziyatlarga tayyorlashni tashkillashtirish sikli boshlig'i.

G.ABDULLAYEVA,

S. ERGASHYEV, sikl xodimlari.

## OCHIQ MULOQOT

Shimoli-g'arbiy okrugning madaniyat saroyida Qoraqalpog'iston Respublikasi FVB boshlig'i podpolkovnik A.Davletov boshchiligidagi boshqarma tarkibidagi yosh harbiy xizmatchilar bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuv davomida Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi va "O'zbekiston-2030 strategiyasi"da milliy armiyamizga qaratilgan alohida e'tibor, shuningdek, FVV oldiga qo'yilgan vazifalar, yoshlarda vatanparvarlik, kasbga, burchga sadoqatli bo'lish kabi mavzular xususida so'z yuritildi.

Tadbir Shimoli-g'arbiy okrug tarixi muzeyida davom ettirilib, ishtirokchilar ota-bobolarimizning shonli jangovar tarixi bilan yaqindan tanishdilar.

Aybek ABDIRAHMONOV,

Qoraqalpog'iston Respublikasi FVB axborot xizmati boshlig'i, kapitan.

## ADABIY KECHA

Andijon viloyati FVB tomonidan Alisher Navoiy tavalludining 583 yilligi munosabati bilan adabiy kecha tashkil etildi.



Tadbirida Alisher Navoiyning ibratli hayoti, ijodining mazmun-mohiyati, bugungi kun uchun ahamiyati to'g'risida fikr almashildi. Shoir she'riyati asosidagi g'azalxonlik, shuningdek, namoyish etilgan sahna ko'rinishlari tadbir ishtirokchilarida katta taassurot uyg'otdi.

A.UMAROV,

Andijon viloyati FVB bo'lim boshlig'i.

## MA'RIFIY TADBIR

FVV Akademiyasida O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti va Qurolli Kuchlar Akademiyasi bilan hamkorlikda "Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur merosi, madaniyati hamda o'zbek davlatchiligida tutgan o'rni yoshlar nigohida" mavzusidagi ilmiy-amaliy va ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Unda universitet, Qurolli Kuchlar Akademiyasi hamda FVV Akademiyasi professor-o'qituvchilari, harbiy xizmatchilar, talaba va kursantlar va OAV xodimlari ishtirok etdilar.

Tadbirida FVV Akademiyasi boshlig'i general-mayor Ravshan Haydarov so'z olib, ochib, mamlakatimizda yosh avlodning sog'lom o'sishi, sifatli ta'lim olishi va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilayotganini ta'kidladi. Yoshlarga ma'naviy, milliy-adabiy nechog'lik ulkan ahamiyat kasb etishini anglatish, ular bilan faxrlanish va g'ururlanish hissini kuchaytirishdan zarurligini e'tirof etdi.

Tadbir davomida yoshlar tomonidan buyuk bobokalonlarimiz boy ma'naviy meroslari bo'lgan g'azal va ruboiylardan o'qildi, mavzu doirasida tayyorlangan badiiy chiqishlar, turli xil sahna ko'rinishlari, videolavhalar namoyish etildi. Qolaversa, yoshlar o'rtasida o'tkazilgan qiziqarli savol-javoblar ham barcha qatnashchilarning qalbida iliq taassurotlarni qoldirdi.

Quvondiq MURTAZAYEV, FVV Akademiyasi kafedra boshlig'i, podpolkovnik.

Jamshid HAKIMOV,

kursant.



## SEMINAR

Andijon viloyati FVBda viloyat Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar boshqarmasi tasarrufidagi kasb-hunar maktabi vakillari, Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi mas'ul xodimlari hamda bir qator tashkilotlardan iborat tashrif buyurgan mehmonlar ishtirokida o'quv-seminari bo'lib o'tdi.

Seminarni boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari – Shtab boshlig'i J.Karimov kirish so'zi bilan ochib, "Yosh qutqaruvchi ko'ngillilar klublarining tashkil etilishi va musobaqalarning o'tkazilishi yoshlarni sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga tayyorgarligini oshirishga, o'sib kelayotgan yosh



avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilishini ta'kidladi. So'zga chiqqanlar klub faoliyati haqida o'zlarining ijobiy fikrlarini bildirishdi.

**Naziraxon DADABAYEVA,**  
Andijon viloyati FVB  
HFXO'M o'qituvchisi.

Buxoro neftni qayta ishlash zavodining obyektlarda yong'in xavfsizligini tashkil etishni ta'minlash bo'limi xodimlari tomonidan zavod sexlaridagi elektrgazpayvandlovchi-kesuvchi, gazda kesuvchi, qo'lda payvandlash elektr payvandchi va elektrgazpayvandchilarni 10 soatlik o'qitish ishlari amalga oshirilmoqda.

## O'QITILMOQDA



O'qitish jarayonida yong'in xavfi yuqori bo'lgan ishlarni olib borishda yong'in xavfsizligi talablarini reglamentga soluvchi asosiy normativ hujjatlar, yong'in xavfi bo'lgan ishlarning turlari, ularni olib borish tartibi, moddalar va materiallarning yong'in xavfi, yong'inlarniug kelib chiqish sabablari, oldini olish choralarini, portlash va yong'in xavfi yuqori bo'lgan obyektlar va qurilmalarda olovli ishlarni olib borishda yong'in xavfining xususiyatlari haqida tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

**J.ABDUALIMOV,**  
BNQIZ OYOXTTEB boshliq o'rinbosari,  
podpolkovnik.

## O'QUV

Pop tumani FV bo'limi shaxsiy tarkibga yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishish maqsadida o'quv seminari o'tkazildi.

Tadbirida qayd etilganidek, bo'lim hamda 14-yong'in-qutqaruv qismida shaxsiy tarkibga yaratilgan shart-sharoitlar yaxshilandi va binolarni zamonaviy tarzda ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Bundan tashqari, qutqaruvchilarni jangovar shayligini oshirish maqsadida o'quv minoralari barpo etildi.

Seminarda FV bo'limi xodimlari va qism boshliqlari ishtirok etdilar.

**Akmaljon O'RINBOYEV,**  
Namangan viloyati FVB boshlig'ining birinchi o'rinbosari – Shtab boshlig'i, polkovnik.

**Alisher AHRAMOV,**  
Pop tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari,  
kapitan.

## PROFILAKTIKA

Loqaydlik va e'tiborsizlik oqibatida bizning davrimizga kelib ko'pchilik ota-onalar, olov bilan bog'liq ishlarda, aytaylik, ovqat pishirish, choy qaynatish singari uy-ro'zg'or yumushlarida yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilishmaydi yoki bu yumushlarni bolalarga topshirib qo'yishadi. Buning natijasida joylarda turli darajadagi yong'inlar sodir bo'lib turibdi. Shu sababli davlat yong'in xavfsizligi xizmati xodimlari tomonidan aholi turar-joylarining yong'inga qarshi holati muntazam tekshirib turiladi, profilaktik tadbirlar muntazam o'tkazilib boriladi.

**Muqimov SAIDJON,**  
"Metropolitan"da yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'limi kichik inspektori, kichik serjant.

## SIFAT VA SAMARA

Tabiatda yong'in o'chiruvchi moddalar ko'plab topiladi. Undan tashqari, zamonaviy texnologiyalar asosida yangi turdagi yong'in o'chirish moddalari tayyorlanmoqdaki, ular tabiatda uchramaydi. Biroq, barcha yong'in o'chirish moddasi ham yong'in-texnik qurollari ichida qo'llanilavermaydi, chunki yong'in o'chirish moddasi belgilangan talablarga javob berishi kerak.

Yong'in o'chirish moddasi: kam sarf bilan yuqori o'chirish samaradorligiga ega bo'lishi; ishlatish uchun qulay, arzon va oddiy bo'lishi zarur.

Yong'indagi harakatlarni uzluksiz olib borish talabi – yong'inning rivojlanishi va uni o'chirishning shartli mexanizmlariga bog'liq. Yong'in o'chirish vositalarini uzatishning to'xtatilishi yoki yong'in o'chirish vositalarining hal qiluvchi yo'nalishga uzatilish sarfi kamaygan hollarda, bartaraf etilgan yong'in qaytadan rivojlanishi va oldingi holatidan ham jadallashib ketishi mumkin. Yong'inni o'chirish uchun kuch va vositalardan hamjihatlikda to'liq hamda to'g'ri foydalanish talab etiladi.

**A.KADIROV,**  
Prezident Administratsiyasi binosida YXTTE 1-bo'linmasi kichik inspektori,  
oddiy askar.

## TUSHUNCHALAR BERILDI

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ, "Navoiyuran" Davlat korxonasi obyektlarida Yong'in xavfsizligini ta'minlash markazi va uning tasarrufidagi Uchquduq, Zarafshon, Navoiy sanoat maydoni, kombinatning Janubiy kon boshqarmasini yong'indan muhofaza qiluvchi yong'in-qutqaruv qismlari va "Zarfarobod" qo'rg'onidagi bo'limlarining barcha yong'in-qutqaruv bo'lim va qism boshliqlari, o'rinbosarlari hamda smena boshliqlari ishtirokida "Yong'in-qutqaruv bo'linmalarida navbatchi smena xizmatini tashkil etish hamda xizmat hujjatlarini yuritish" mavzusida o'quv seminari o'tkazildi.

Seminarda mas'ullar tomonidan "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJga qarashli toifalangan obyektlarda yong'in xavfsizligini ta'minlash, sodir bo'lgan yong'inlarni o'z vaqtida va tezkorlik bilan bartaraf etish, targ'ibot-tashviqot ishlarining sifati va samaradorligini kuchaytirish yuzasidan tegishli topshiriq va tavsiyalar berildi.

Qayd etilganidek, Samarqand viloyatining Qo'shrabot, Nurobod, Jizzax viloyatining G'allaorol hamda Uchquduq va Zarafshon shaharlarida sodir bo'lgan

yong'inlarni bartaraf etishda va shu bilan birga shaxsiy tarkib tomonidan chiqish hududlaridagi fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida is gazi va favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan targ'ibot tadbirlari va tushuntirish ishlari muntazam ravishda olib borilmoqda.

**Alijon NAVRO'ZOV,**  
"NKMK" AJ va "Navoiyuran"  
DK obyektlarida Yong'in xavfsizligini ta'minlash markazi boshlig'i o'rinbosari,  
podpolkovnik.

## YONG'IN O'CHIRISH USULLARI

Yong'inni o'chirishda u yoki bu usulni, yong'in o'chirish moddasini qo'llash yong'inning rivojlanish sharoiti va xarakteri, yonuvchi materialning tarkibi va holati, shaxsiy tarkib bajarayotgan ishning hajmi va xavfsizligi, yong'in o'chiruvchi rahbar qo'l ostida kuch va vositalarning mavjudligi, bo'linmalarining jangovar tayyorgarligiga bog'liq. Bularning barchasida zarar va sarfning eng kam miqdorda bo'lishi ko'zda tutilgan.

Yong'inni o'chirish bo'linmalarining xatar xabari signali bo'yicha yig'ilishi, yong'in sodir bo'lgan joyga chiqish va yetib borish, yong'in holatini aniqlash kuch va vositalarning yoyilishi kabi

bosqichlar bilan chambarchas bog'liqdir. Yong'inni muvaffaqiyatli o'chirishga asosiy va maxsus yong'in o'chirish texnikasiga ega bo'linmalarining harakatlari bilan erishiladi. Yong'inni o'chirishda yuzaga kelgan vaziyatga qarab, har bir bo'linma belgilangan taktik imkoniyatlarga ega bo'lib, topshirilgan hajmdagi ishlarni bajarishi lozim. Yong'in xavfsizligi xizmati bo'linmalarining taktik imkoniyatlari – bu ularning odamlar va moddiy boyliklarni qutqarish, yong'inni o'chirishda belgilangan ish bajarish qobiliyatidir.

**S.ABDULLAYEV,**  
Prezident Administratsiyasi binosida YXTTE 1-bo'linmasi kichik inspektori,  
kichik serjant.

## MUHIM MAVZUDA

Jizzax viloyati FVB Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi xodimlari tomonidan joriy yil yanvar oyi davomida Jizzax shahar, Sh.Rashidov, Arnasoy tumanlari hududidagi aholi bilan "Ogohlik – davr talabi", "Zilzila sodir bo'lganda aholining harakati", "Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda aholi harakati", "Ovqatdan zaharlanishdan saqlanish!", "Is gazidan saqlanish!" mavzularida suhbatlar o'tkazildi.



O'tkazilgan tadbirlarda mahalla "Fuqaro muhofazasi" tuzilmalari faoliyati yuzasidan, uslubiy yordam ko'rsatildi. Shuningdek, FVDTning asosiy faoliyati favqulodda vaziyatlarning oldini olish, oqibatlarini bartaraf etish, aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, FVDT boshqaruv organlari hamda kuch-vositalarining tayyorgarligini ta'minlash, aholini to'g'ri harakat qilishga qaratildi.

**B.QOBILOV,**  
S.XOJIMETOV,  
Jizzax viloyati FVB  
HFXO'M o'qituvchilari.



Маърифат соати

# ЖАДИДЛАР: МИЛЛИЙ ЎЗЛИК, ИСТИҚЛОЛ ВА ДАВЛАТЧИЛИК ҒОЯЛАРИ

Тарихдан маълумки, XIX аср охири – XX аср бошларида, айниқса, 1905 йил рус инқилобидан кейин Туркистон ҳудудида чор мустамлакачилик сиёсати кучайиб бориш босқичига ўтди. Мана шундай бир даврда маҳаллий халқ ўртасида мустамлакачилик зулмига қарши норозилик кайфияти кучая бошлади.

Маҳаллий халқнинг пешқадам зиёлилари жаҳолат ва қоқоқликка қарши, эрк ҳамда ҳуррият учун курашиш мақсадида маърифатпарварлик, тараққийпарварлик ғояларини олға сурдилар. Бу ислохотчилик ҳаракати “жадидчилик”, унинг вакиллари эса “жадидлар” номи билан тарихга кирди. Хусусан, Туркистон жадидчилигининг йирик намояндалари бўлган Абдулла Авлоний, Маҳмудхўжа Бехбудий, Мунавварқори Абдурашидхоннинг истиқлол, озодлик, эркинлик учун қилган фидокорлиги, шу билан бир қаторда уларнинг миллий таълим ва тарбия тизимини яратишдаги ҳиссаси жуда юқори бўлган. Шу даврда мактабларда ўқитиладиган бирорта туркий тилдаги китоб мавжуд эмас эди. Барча дарс китоблари форс ёки араб тилида бўлгани боис, жадидлар ўзларининг ислохотларини мактабдан, аниқроғи, бошланғич таълимдан бошлаган. Чунки бола бошланғич саводини ўзининг она тилида чиқариши унга миллат, миллият тушунчаларининг чуқурроқ сингдирилишини таъминлашини илгари суришган. Бехбудий бошлиқ жадидлар халқни исрофли тадбирлардан воз кечиш, уларга кетадиган маблағни иқтисодиётнинг барча тармоқларида миллий кадрлар тайёрлаш мақсадида давлат таълим муассасаларида болалар ўқишига йўналтиришга даъват этди.

Қолаверса, жадидларнинг саъй-ҳаракати билан миллий матбуот, замонавий адабиёт, театр санъати пайдо бўлди. Хусусан, жадид матбуоти том маънода фикр алмашиш, илғор ғоя ва фикрларни тарғиб қилиш, баҳслашиш майдонига айланди. Дарҳақиқат, миллат маънавиятини ислох этиш, одамларни маърифатли қилиш, оламга очиқ назар билан боқишга ўргатиш ва мудроқ тафаккурни уйғотишнинг энг асосий омили сифатида жадидлар матбуотнинг қадрини баланд кўтарди. Улар наздида матбуот – фикрлар тилмочи, миллат ва эл-юрт ривожини йўлида хизматчи, одамлар онг-у шуурининг қуёши, ҳар кимнинг виждонига тутилган кўзгү бўлмоғи лозим эди. Ўзбек матбуоти тарихи жадидчилик ҳаракати ва жадид зиёлилари номи билан табиий равишда боғланади. Жадид зиёлилари учун эски усулдаги мактабларни ислох этиш, бадиий адабиётни янги ўзанга солиш, театр саҳнасини ибратхонага айлантириш нақадар

муҳим бўлса, миллий матбуот тараққийси ҳам шу даражада аҳамиятли эди. Демократик қадриятларни ўзида акс эттирган, фикрлар қарама-қаршилигини кўтара оладиган, ижтимоий-сиёсий мавзуларда танқид қиладиган матбуот ҳисобланган. 1906 йилда Мунавварқори раҳбарлигида “Хуршид”, 1907–1908 йилларда Абдулла Авлоний муҳаррирлигида “Шуҳрат” газетаси чиқа бошлаган. Бироқ маърифатпарварликнинг газетаси ва журналлар чоп этиш билан



ифодаланган янги тўлқини 1913 йили бошланди ҳамда “Самарқанд”, “Садои Туркистон”, “Садои Фарғона”, “Эл байроғи”, “Кенгаш”, “Турон” ва “Ойна” сингари газета ва журналлар дунё юзини кўрди. 1917 йилга келиб, Туркистон мухторияти ўрнатилган, “Хуррият”, “Нажот”, “Буюк Туркистон” ва энг муҳими, Саид Азимбоевнинг шарофати билан “Тужжор” газетаси пайдо бўлди. Ўша газета жадидлар учун минбар вазифасини ўтади, ислохот борасидаги ғояларини тарғиб қилиш билан янада кўпроқ имкониятлар очиб берди. Вақтли матбуот одамларнинг ижтимоий ҳаётига фаол аралашмоғи ва дунёдан боҳабар бўлмоғи учун заруратга айланди. Жадидлар одамлар онгида ўзига хос ўзгариш яшашнинг удалашга интилишган. Улар ўзларининг умуммиллий ғоясини туб моҳиятини тушунтирар экан, ушбу ғоя қолган барча ғоялардан юқори туриши кераклигини таъкидлаган эди. Миллатни улуглаш, мақсадларни юқори кўтариш, миллатнинг ҳақиқий бирлиги бу умуммиллий ғоянинг туб моҳиятини ташкил этади.

Миллий ғоянинг яна бир асосий тарғибот қуроли – адабиётдир. Жадидлар бу воситадан ҳам жуда унумли фойдаланди. Жадидлар адабиётни халққа, оммага яқинлаштирди, унинг тилида ёзишга ҳаракат қилди. Ва бу ишни удалади. Улар янги ўзбек адабиётига асос солди. Унга янги жанрлар – фелетон, ҳикоя, драма, қисса, роман ва бошқаларни олиб кирди ҳамда бугунги кунда ҳам исталган бадиий асар билан беллаша оладиган юксак ижод намуналарини яратди. Миллатни уйғотишдек улкан вазифа ижросига бел боғлаган эди. Жадидлар ва уларнинг мактаби, маорифи, театри, адабиёти ва матбуоти. Муҳим бир фикр шуки, даврий нашрлар қайсидир маънода ижтимоий ҳаётдаги ўзгаришлар тарихи билан уйғун, ҳамқадам эди. Ўзгаришлар, янгиланишлар газета ва журналлардан акс этди. Ёки шу ўзгаришларга мос янгидан-янги матбуот нашрлари вужудга келди. Лекин тез орада мустамлакачилар ҳукумати ўз эксперти Остроумов берган маълумотга таяниб, ушбу нашрларни ёпади. Остроумов мактаблар ва газеталарни ёпиш учун кўп жонкуярлик қилган.

Шу ўринда таъкидлаш лозимки, ёзувчи, жамоат арбоби ва ўзбек драматургияси асосчиси Маҳмудхўжа Бехбудий жадидчилик ҳаракатининг асосчиларидан бири бўлган. Маълумотларга кўра, Бехбудий ҳаж сафарига бўлган чоғида Арабистон, Миср, Туркияда бўлиб, бу ерларнинг маориф соҳаси билан танишади. Бехбудий Туркистонда биринчилардан бўлиб янги усул мактабларини ташкил қилиш ва улар учун дарсликлар ёзган тараққийпарварлардан эди. Унинг ёзувчилик пойдевори нуқтаси 1911 йил Самарқандда ёзилган “Падаркуш” драмаси саналади. Унда ёш авлод маълумотли, юксак маърифатли ва маданиятли бўлиши кераклиги келтирилган. Драма илк бор 1912 йил “Турон” газетасида босиб чиқарилган, 1913 йилда эса алоҳида китоб кўришида нашр этилган. Бехбудийнинг саҳна асари катта муваффақият қозонган, Самарқанд, Бухоро, Тошкент театрларида саҳналаштирилган.

Жадидлар орасидан етук олимлар, саноат ва зироатчилик соҳаларининг замонавий, билимдон мутахассислари, маданият арбоблари етишиб чиқиб, юртни обод ва Ватанни мустақил кўришни орзу қилишди, шу йўлда фидойиларча курашишди. Янги усул мактаблари тармоғини кенгайтириш, қобилиятли ёшларни чет элга ўқишга юбориш, дунёвий илмларни, замонавий фан ва техникани эгаллаб, тараққий топган миллатлар даражасига кўтарилиш, турли маърифий жамиятлар ва театр труппалари тузиш, газета ва журналлар

чоп қилиш, қоқоқликка қарши маърифат билан курашиш, ана шу асосда ҳурриятга эришиш жадид таълимнинг ўзак ғояси ҳисобланади.

Замонавий адабий тил учун қоидалар ишлаб чиқилди, ўзбек тилининг ифода имкониятлари, бадиий тил фасоҳати ва балоғати жадидлар ёзган бадиий асарларда яққол кўринди. Жадид зиёлилари шўроларнинг матбуот нашрларида ишлар экан, янги ҳукуматнинг ваъдаларига гоҳ ишонди ва баъзан шубҳага боришди. Ички бир миллий туйғу зиёлилар кўнглини ҳамиша безовта этди. Бераҳм зolimларнинг қонли панжалари остида зулм чекаётган ўлкага қарата эркпарвар шоир Чўлпон бир шеърида “Нега сенинг қалин товшинг “кет” демайди уларга?”, “Нега тагин танларингда қамчиларнинг қулиши?” – дея сўроқли хитоблар қилади. “Кеча ва кундуз” романида ботиний шуур Мирёқуб оброзига кўчди. XX асрнинг 20-йиллари охирига бориб, Чўлпонни танқид ва таҳқир қилишлар, анжуманлар мажлисларидан ҳайдаб чиқариш жараёнлари бошланди. Қолаверса, Абдулла Қодирийнинг тушунчалари, тасаввурлари жадидона руҳиятли ҳам “Таржимон”, “Улфат”, “Вақт” сингари нашрларни ўқиш билан шаклланди, ўша йилларда, унинг кўнглида “Садойи Туркистон”, “Ойна” саҳифаларида ижод маҳсулларини тақдим этиш фикри уйғонган эди. Халқни турли иллатлардан холи, теран маънавиятли, баркамол, ориф кўриш жадидларнинг асарлари, ҳаёт йўли, фаолиятининг устувор жиҳатини ташкил этган. Улар сўз эркинлиги муҳитида айтган жадидона кайфиятли, ўтли хитоблари учун тафаккур қурбонлари қатлгоҳида жонини берди.

Ўз даврида дунёнинг илғор давлатларидан кўп жиҳатдан ортада қолган Туркистон халқларини бўлажак фожиалардан огоҳ этиш, жамият ҳаётини инқилобий – зўрлик йўли билан эмас, балки маърифий йўл билан ижобий томонга ўзгартириш жадидчилик ҳаракатининг асосий мақсади ва кураш усули эди. Шу ўринда маърифатпарвар шоир, забардаст тилшунос, тарихшунос олим, илк ўзбек матбаачиларидан бири Ибратнинг янги мактаблар очиш, ўқитувчилар тайёрлаш, аёлларни илм-маърифатли қилиш ишларида фаол қатнашганини, ўз шеърларида маҳаллий ва чор амалдорлари кирдикорларини фош этганини, халқнинг илмли, маърифатли бўлиши йўлида амалга оширган ишларини эсга олиш кифоядир. Жадидчилик ҳаракати ва жадидлар замонавий ўзбек жамияти ва давлатчилиги шаклланишига муносиб ҳисса қўшди, жадидларининг илмий ва ижодий мероси бугунги авлод тарбиясида муҳим ўрин тутди ва уларда акс этган ғоялар долзарблигини йўқотган эмас.

“Vaziyat” мухбири  
Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.





## ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАР ВАЗИРЛИГИ АКАДЕМИЯСИГА ЎҚИШГА ТАКЛИФ ЭТАМИЗ!

**ФВВ АКАДЕМИЯСИ КУНДУЗГИ ТАЪЛИМ ШАКЛИГА ҚАБУЛ 1 ФЕВРАЛЬ КУНИДАН БОШЛАНАДИ**

**Аризалар 2024 йилнинг 1 февралдан 31 март (шу кунлари ҳам) кунига қадар доимий яшаш жойи бўйича ҳудудий мудофаа ишлар бўйича бўлимларда қабул қилинади.**

**БИЛИМГА ЧАНҚОҚ ИСТЕЪДОДЛИ  
ЁШЛАРНИ ТОПИБ, УЛАРНИ  
ВАТАНГА ФИДОЙИ ИНСОН ҚИЛИБ  
ТАРБИЯЛАШ ФАВҚУЛОДДА  
ВАЗИЯТЛАР ВАЗИРЛИГИ АКАДЕ-  
МИЯСИНИНГ АСОСИЙ ВА  
МУҚАДДАС ВАЗИФАСИДИР**

Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги Академияси 1993 йил 11 август куни Ёнғин хавфсизлиги олий техник мактаби сифатида ташкил топган бўлиб, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 10 апрелдаги фармони асосида ушбу таълим даргоҳи Ёнғин хавфсизлиги институтига ўзгартирилган. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 10 апрелдаги фармони асосида 2020 йил 1 январдан Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги Академияси ташкил этилди.

Республиканинг барча жабҳаларида фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва уларни бартараф этиш, ёнғин хавфсизлигини таъминлаш, шунингдек, Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги соҳасида малакали кадрларни мақсадли тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш, илмий ва илмий-педагогик кадрларни тайёрлаш бўйича ягона етакчи (таянч) олий ҳарбий давлат таълим муассасаси ҳисобланади.

### ҚАБУЛ ЖАРАЁНИ

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 12 сентябрдаги қарори билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг ҳарбий хизматни ўташ тартиби тўғрисида”ги Низом ва Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 27 декабрдаги қарори билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси олий ҳарбий таълим муассасаларида ўқишга номзодларни саралаб олиш ва қабул қилиш, курсантларни ўқишдан четлаштириш ва қайта тиклаш тартиби тўғрисида”ги Низом талабларига мувофиқ амалга оширилади.

Академияга ўқишга кириш истагини билдирган номзодларнинг ҳужжатлари доимий яшаш жойидаги мудофаа ишлари бўлимлари, ҳарбий хизматчиларники эса ўзининг хизмат жойларида расмийлаштирилади.

Академияга ўқишга кириш истагини билдирган номзодлар доимий яшаш жойидаги мудофаа ишлари бўлимларига ариза билан, ҳарбий хизматчилар эса хизмат жойидаги те-

гишли командир (бошлиқ) номига билдирги билан мурожаат этадилар.

Академияга ўқишга кириш учун аризалар ва билдиргилар 1 февраль кунидан 31 март кунигача (шу куни ҳам) қабул қилинади.

Академияга ўқишга – ўн етти ёшдан йигирма уч ёшгача бўлган, шу жумладан, ўқишга қабул қилинган йили ўн етти ёшга тўладиган фуқаролар, шунингдек, ўн саккиз ёшдан йигирма беш ёшгача бўлган, шу жумладан, ўқишга қабул қилинган йили ўн саккиз ёшга тўладиган, офицерлар таркиби ҳарбий унвонларига эга бўлмаган ҳарбий хизматчилар ва ҳарбий хизматга мажбурлар, шунингдек, йигирма олти ёшгача бўлган ва академияда ўқиш истагини билдирган Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассасаларининг талабалари қабул қилинади.

Ўқишга номзодларнинг бўйи 170 см. ва ундан юқори бўлиши шарт.

Академияга курсантлар контингентини сифатли бутлаш учун қуйидаги саралаб олиш тадбирлари босқич-ма-босқич амалга оширилади:

- ҳарбий-профессионал йўналиш;
- дастлабки саралаб олиш;
- тест синовлари.

Ҳарбий-профессионал йўналиш бўйича тадбирлар ҳарбий хизматчи касбининг моҳиятини ва унга қўйиладиган талабларни очиб бериш, ёшларда ҳарбий касбни онгли равишда танлашни шакллантириш, муайян ҳарбий мутахассисликни танлашда уларга ёрдам кўрсатиш мақсадида амалга оширилади.

Дастлабки саралаб олиш тадбирлари икки босқичда ўтказилади.

Биринчи босқич: фуқаро ёшлар учун – мудофаа ишлари бўлимларида, ҳарбий хизматчилар учун – хизматни ўташ жойида, 1 февралдан 10 апрелга қадар (шу куни ҳам) амалга оширилади:

- ҳужжатларни тўплаш ва ўрганиш;
- яқка тартибдаги суҳбат;
- бирламчи тиббий кўрик.

Иккинчи босқич: фуқаро ёшлар ва ҳарбий хизматчилар учун – Мудофаа ишлари бошқармалари ва Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлигининг ҳарбий-тиббий муассасаларида 11 апрелдан 31 майга қадар (шу куни ҳам) амалга оширилади:

- индивидуал-психологик ўрганиш;
- умумжисмоний тайёргарлик кўрганлигини баҳолаш;
- якуний тиббий кўриқдан ўтказиш.

Қабул имтиҳонлари Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Билим ва малакаларни баҳолаш агентлиги томонидан мажбурий блокда – она тили (ўзбек, рус, қорақалпоқ),

математика, Ўзбекистон тарихи фанидан ҳамда мутахассислик бўйича – математика, физика фанларидан тест синовлари ўтказилади.

Академияга ўқишга топширган дастлабки саралаб олиш тадбирларидан муваффақиятли ўтган номзодларга, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 27 декабрдаги 775-сон қарори билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси Олий ҳарбий таълим муассасаларида ўқишга номзодларни саралаб олиш ва қабул қилиш, курсантларни ўқишдан четлаштириш ва қайта тиклаш тартиби тўғрисида”ги Низом талабларига мувофиқ амалга белгиланган тартибда имтиёзлар қўлланилади.

### ЎҚУВ ЖАРАЁНИ

Ўқишга қабул қилинган номзодлар ўқиш жараёнида бепул мавсумий кийим-бош, барча шароитга эга ётоқхона, озиқ-овқат ва пул (стипендия) билан таъминланадилар. Академияда қуйидаги таълим йўналишлари бўйича офицер кадрлар тайёрланади:

1. “Ёнғин хавфсизлиги” мутахассислиги.
2. “Техносфера хавфсизлиги” мутахассислиги.

Академияни тамомлаган битирувчилар лейтенант ҳарбий унвонига, магистрга тенглаштирилган дипломга эга бўлади.

ФВВ Академиясида ўқув жараёни ўқитишнинг энг замонавий техник жиҳозлари билан таъминланган бўлиб, ўқув-лаборатория бинолари, тиббиёт хизмати ва маиший хизмат, Маънавият ҳамда маърифат маркази ва шунга ўхшаш объектлар курсантларнинг билим олишлари ҳамда шуғулланишлари учун доимо шай ҳолатда.

Академияда олиб борилаётган ўқув машғулотларининг амалий идоралар тажрибалари билан уйғунлаштирилиши, курсантларнинг Тошкент шаҳрида содир бўлаётган фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва бартараф этишга жалб этилиши йўлга қўйилган.

Курсантларнинг назарий билимларини амалиёт билан боғлаб бориш устувор вазифалардан бири эканлигини инobatта олган ҳолда, академияда мунтазам равишда амалиёт ходимлари билан учрашувлар, давра суҳбатлари уюштирилади.

ФВВ Академиясида юрт ва Ватан шаънини ҳар нарсадан устун қўядиган, юртимиз тинчлиги, осойишталиги, ҳаётини муҳофаза қилиш учун сидқидилдан хизмат қиладиган, хавф-хатардан чўчимайдиган, ўторак мутахассислар тайёрланади.



# Vaziyat

газетаси

**Муассис:**  
**Ўзбекистон**  
**Республикаси**  
**Фавқулодда**  
**вазиятлар**  
**вазирлиги**

Бош муҳаррир в.б.  
**Азамат СУЙОНОВ**

Газета таҳририят  
компьютерхонасида  
саҳифаланди.

Газета ҳар ҳафтанинг  
пайшанба куни чиқади.  
Топшириш вақти – 15.00  
Топширилди – 15.00

Навбатчи:  
**М. САНАЕВ**

Таҳририятга юборилган  
материаллар қайтарилмайди  
ва изоҳ берилмайди.  
Муаллифлар фикри таҳририят  
нуқтаи назаридан фарқланиши  
мумкин.

Газетадан олинган материаллар  
манбаси кўрсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон Матбуот ва  
ахборот агентлигида 2007 йил  
3 январда 0096-сон рақам  
билан рўйхатга олинган  
**ISSN 2091-5292**

**Таҳририят манзили:**  
100084, Тошкент шаҳри,  
Кичик ҳалқа йўли, 4-уй.  
**Тел.:** (71) 231-96-71  
**Телеграмм:** (90) 016-87-67

**Индекс:**  
яқка обуначилар ва  
ташкilotлар учун – 382

Газета “BUSINESS PRINT DESIGN”  
босмахонасида босилди.  
Манзил: Тошкент шаҳри,  
Сўғалли ота кўчаси, 5-уй.  
Буюртма №  
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т.  
Адади – 6600 нусха



Тошкент шаҳар, Янгиҳаёт тумани Дўстлик кўчаси 5-уй. Тел/Факс: 71-258-56-57; 71-258-88-81

**“ЎЗ ВАҚТИДА ОГОҲЛАНТИРИШ, ҚУТҚАРИШ ВА ЁРДАМ БЕРИШ”**